



XORAZM VOHASI FOLKLORI TILIDA AYRIM TEMPORAL BIRLIKLAR HAQIDA

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
e-mail.khiva1970@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm vohasi folklori tilidagi ayrim temporal birliklar tadqiq qilinadi. Temporal birliklar zamon tushunchasi va uning turli ko‘rinishlarini ifodalovchi birliklar bo‘lib, ular turkiy xalqlar og‘zaki ijodida faqat vaqt tushunchasinigina emas, balki bu xalqlarning dunyoqarashi, hayot tarzi va falsafasini ham aks ettirishi maqolada o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: Folklor, Xorazm vohasi, maqol, parema, vaqt, temporal birlik, taqvim, afsona.

О НЕКОТОРЫХ ТЕМПОРАЛЬНЫХ ЕДИНИЦАХ В ФОЛЬКЛОРНОМ ЯЗЫКЕ ХОРАЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые темпоральные единицы в фольклорном языке Хорезмского оазиса. Временные единицы – это единицы, выражающие понятие времени и различные его формы, а также то, что они отражают не только понятие времени в устных произведениях тюркских народов, но и мировоззрение, образ жизни и философию этих народов.

Ключевые слова: фольклор, Хорезмский оазис, пословица, парема, время, временное единство, календарь, миф.

ON SOME TEMPORAL UNITS IN THE LANGUAGE OF KHOREZM OASIS FOLKLORE

Annotation. This article studies some temporal units in the folklore language of the Khorezm oasis. Temporal units are units that express the concept of time and its various manifestations, and the article shows that they reflect not only the concept of time in the oral literature of the Turkic peoples, but also the worldview, lifestyle and philosophy of these peoples.

Keywords: Folklore, Khorezm oasis, proverb, parema, time, temporal unit, calendar, legend.

KIRISH. Til – xalqning ma’naviy boyligi, uning tafakkuri va dunyoqarashini ifodalovchi muhim vosita. Turkiy tillarda zamon tushunchasi, uning turli ko‘rinishlari, jumladan, temporal birliklar juda boy va rang-barang tarzda ifodalanadi. Bu mavzuni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish orqali biz turkiy tillarning leksik-semantik xususiyatlarini, vaqt tushunchasining ifodalanish yo‘llarini chuqurroq anglashimiz mumkin. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi temporal birliklar nafaqat vaqt, balki xalqlarning dunyoqarashi, falsafasi, turmush tarzini ham aks ettiradi.

Temporal birliklarning timsoliy ma’nosi, ularning semantik xususiyatlarini o‘rganish orqali turkiy tillarning leksik-semantik xususiyatlarini chuqurroq anglash mumkin. Ajdodlarimiz og‘zaki ijodidagi temporal birliklarni o‘rganish orqali xalqlarning tarixiy-madaniy merosini, ularning o‘zaro aloqalarini ham o‘rganish mumkin. Shuningdek, ko‘pgina temporal birliklarda, qadimgi turkiylarning animistik dunyoqarashlari o‘z ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbek xalq maqollari ichida vaqt tushunchasi talqini bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab durdonalar mavjud. “Vaqting ketdi – naqding ketdi”, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” kabi maqollar necha asrlardan beri necha bir avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Shulardan biri “Kech qolgan karvonning tezagi qora” maqoli kechikish oqibatlarini, ayniqsa, imkoniyatni qo‘ldan boy berish natijasidagi noqulayliklarni ifodalaydi. Karvonning kechikishi, uning ortda qolishiga, yaxshi sharoitlardan mahrum bo‘lishiga olib keladi. *Tezak* so‘zi esa karvon ortidan qolib ketganlikning ramzi sifatida ishlatiladi, ya’ni kechikkanlar faqatgina qoldiqlar bilan qanoatlanishiga ishora. Maqolning ma’nosi boshqa tillarda ham turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, rus tilida “Поздному гостю – кости” (Kech mehmonga – suyak). Bu maqol kechikish natijasida eng yaxshisi qolmasligini anglatadi. Ingliz tilida “The early bird catches the worm” (Erta turgan qush chuvalchangni ushlaydi). Bu maqol aksincha, erda harakat qilishning afzalliklarini ta’kidlaydi. Turk tilida “Geç gelen misafir aç kalker” (Kech kelgan mehmon och turadi), qozoq tilida “Keshikken keruennen qalg‘annan yeshten qalmaydy” (Kechikkan karvondan qolgandan hech nima qolmaydi) kabi.

Turkiy xalqlarda vaqt qadri masalasining doimo diqqat e’tiborda bo‘lganini “Уақыт – емші” (Vaqt – davolovchi), “Ерте тұрсаң, бір пайда, кеш тұрсаң, бір зарар” (Erta tursang, bir foyda, kech tursang, bir zarar) kabi qozoq; “Убакыт – учкан куш” (Vaqt – uchgan qush), “Эртеңкини бүгүн қыл” (Ertangini bugun qil) qirg‘iz; “Vakit nakittir” (Vaqt – bu naqd) kabi turk maqollarida ham ko‘ramiz. Bu maqollarning barchasi vaqtning qadriga yetish, uni behuda sarflamaslik, har bir daqiqadan unumli foydalanish kerakligini uqtiradi. Turkiy xalqlar azaldan vaqtning qadrini yuqori baholab, uni doimo g‘animat bilganlar.

Turkiy xalqlarda burj nomlari, xususan, uning temporal leksika sifatidagi semalari asosida ko‘plab paremlar yuzaga kelgan. Masalan, “Hamal kirdi – amal kirdi” maqoli o‘zbek xalqining bahor fasliga bo‘lgan munosabatini, dehqonchilik ishlarining boshlanishini ifodalaydi. Hamal Qo‘y burjining forsha nomi bo‘lib, bahorning boshlanishini bildiradi. Bu maqol faqat o‘zbeklarda emas, balki boshqa xalqlarda ham bahorning kelishi va ishlarining boshlanishiga oid turli maqollar va iboralar mavjud. Masalan, turklarda “Mart kapıdan baktırır,

kazma kürek yaktırır” (Mart eshikdan qaratadi, ketmon kurak yoqtiradi) degan maqol bor. Bu mart oyida ishlarning boshlanishini anglatadi. Qozoq xalqida ham Navro‘z bayrami keng nishonlanadi va bahorning kelishi bilan bog‘liq turli marosimlar o‘tkaziladi. Qardoshlarimizda “Köktem kelse, көңіл тйлейди” (Ko‘klam kelsa, ko‘ngil o‘sadi) degan maqol mavjud bo‘lib, bu ham bahorning kelishi bilan yangilanishni ifodalaydi.

Xorazm vohasida temporal birliklar bilan bog‘liq ko‘plab xalq og‘zaki ijodi namunalari mavjud bo‘lib, ularning katta qismi unutilib ketmoqda. Masalan, “O‘n kun aqman, o‘n kun bahman” maqoli bor. Bunda *aqman* so‘zining negizi turkiy “oq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “oq rang” ma‘nosini anglatadi. Vohada kekxa avlod vakillari ichida *Aqman* ismi uchrasa ham, uning leksik birlik sifatidagi faolligini kuzatmaymiz. Shuning uchun boshqa turkiy xalqlar materiallariga murojaat qilamiz. Masalan, Boshqiriston hududida *aqman* so‘zi kuchli qor va mart oyi bo‘roni bilan bog‘lanadi. Oq rangi qorning rangi bilan ham aloqador bo‘lishi mumkin. *Akman-Tokman bo‘ronlari* iborasi ismning tabiat hodisasi – mart oyi bo‘ronlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu quyidagilardan dalolat berishi mumkin: Ismning meteorologik ma‘nosi, ehtimol, shamol yoki qorning xususiyatlari bilan bog‘liq. Bahorgi ob-havoning shafqatsizligi va o‘zgaruvchanligini aks ettiruvchi ramziy ma‘no.

Akman va Tokman haqidagi afsona boshqird folklorining bir qismi bo‘lib, tarixiy voqealarni va xalqning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Qahramonlar ismlarining tabiat hodisalari bilan bog‘liqligi ko‘p xalqlarning folklor an‘analariga xosdir.

Boshqird zaminiga mo‘g‘ul xonlari hujum qiladi. Boshqirdlar o‘z erkinligi uchun kurashadilar. Suraman ismli botir xalq qo‘zg‘olonini boshqaradi va xon qo‘shinlariga qarshi jang qiladi. Uning o‘limidan so‘ng rafiqasi kurashni davom ettiradi va u ham janglarda halok bo‘ladi. Ularning o‘g‘illari Akman va To‘qman ota-onalarining ishini davom ettirib, mo‘g‘ullarga qarshi kurashadilar. Xoinlar tufayli ularning qarorgohi dushmanlar tomonidan topiladi. Qahramonlar va ularning jangchilari mardonavor kurashib, halok bo‘ladilar. Ularning o‘limidan so‘ng mart oyidagi kuchli bo‘ronlar *Akman-To‘qman bo‘ronlari* deb nomlanadi.

Turkiy xalqlarda tabiat hodisalari bilan bog‘liq afsonalar keng tarqalgan. Masalan, shamol, bo‘ron, qor kabi tabiat hodisalari qahramonlar bilan bog‘lanadi. Qahramonlik ko‘rsatgan opa-ukalar mavzusi, boshqa turkiy xalqlarda ham uchraydi [1]. *Акман-тукман* rus tiliga ham o‘zlashgan bo‘lib, *акман-тукман, бишкунак, буря, ветер, ветр, вьюга, вьюговей, дерунья, заверть, завертай, метелица, метель, падера, пурга, хурта* bo‘ron tushunchasi sinonimik qatoriga kiradi [2].

Qozoq tilida esa *aqpan-toqpan* — aqpan (fevral) oyida bo‘ladigan hodisaning nomi. *Aqpan-toqpan* uch kundan yetti kungacha davom etadigan qattiq sovuq amalning ikkinchi nomi, ikki aka-ukaning (ismi) [3]. Qozoqlarda “Aqpan-Toqpan – алты кын, аязымен жети кын” [4] maqoli bor.

Maqolning ikkinchi qismidagi *Bahman* بهمن qadimgi fors tilidagi *Vohumanah* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “Avesto”dagi ezgu fikr xudosining nomidir. Bu so‘z ikki qismdan iborat: *vahu* (ezgu, yaxshi) va *manah* (fikr, ong).

Bahman 1) zardushtiylikda ezgu fikr xudosi bo‘lib, u aql, donolik va yaxshi niyatlar bilan bog‘liqdir; 2) fors quyosh taqvimidagi o‘n birinchi oy bo‘lib, odatda 20-yanvardan 19-fevralgacha davom etadi; 3) bahman (*Centaurea behen*) fitonimi dorivor o‘simlik bo‘lib, uning ildizi tibbiyotda ishlatiladi. 4) Bahman Eron va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan erkaklar ismidir. Eron taqvimida bahman oyi qishning oxiri va bahorning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davr yangilanish va tiklanish vaqti hisoblanadi.

O‘zbek mumtoz adiblari tilida *hamal*, *bahman* so‘zlari temporal birlik sifatida faol ishlatilgan va mohiyatan bir-biri zidlanadi. Masalan, Nosiriddin Rabg‘uziy o‘zbek adabiyotidagi birinchi g‘azal sifatida mashhur she’rida yozadi:

Kun *hamalg‘a* kirdi ersa keldi olam Navro‘zi,

Kechti *bahman* zamharir qish, qolmadi qori buzi [5].

Vohada unutilib borilayotgan maqollardan biri “Uch kün//gün äks, uch kün//gün näks” maqolidir. Bu maqol tarkibida bugungi kunda iste’moldan chiqqan so‘z *naks* bo‘lib, turlicha talqin qilinishi mumkin. Birinchidan, bu so‘z *nahs*ning fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lishi mumkin. *Nahs* arabcha so‘z bo‘lib, “baxtsizlik”, “yomonlik”, “zarar” kabi ma’nolarni anglatadi. Qadimgi Sharq astrologiyasida nahs sayyoralarning noqulay holatlari yoki burjlarning bir-biriga nomuvofiqligi natijasida yuzaga keladigan salbiy ta’sirlarni ifodalash uchun ishlatilgan.

Nahs tushunchasi asosan quyidagilarga bog‘liq bo‘lgan:

Sayyoralarning holati: Qadimgi astrologlarga ko‘ra, ayrim sayyoralar (masalan, Saturn va Mars) “nahs” sayyoralar hisoblangan va ularning noqulay burjlarda joylashishi yoki boshqa sayyoralar bilan “qarama-qarshi” holatda bo‘lishi salbiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi.

Burjlarning munosabati: Har bir burj o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning bir-biriga nomuvofiqligi “nahs” holatlarni yaratadi. Masalan, olov burjlari suv burjlari bilan, yer burjlari esa havo burjlari bilan nomuvofiq hisoblangan.

Soatlar va kunlar: Qadimgi astrologlar kun va soatlarni ham sayyoralar ta’siriga bog‘lab, ayrim vaqtlarni “nahs” deb hisoblaganlar.

Qadimgi Sharq astrologiyasida nahsning ta’siri turli sohalarda, jumladan, shaxsiy hayot, sog‘liq, munosabatlar va moliyaviy ishlarda namoyon bo‘lishi mumkin deb hisoblangan [6].

Umuman, ajdodlarimizda o‘z taqdirini yulduzlar bilan bog‘lash xurofoti mavjud bo‘lgan. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan inson taqdiri va yulduzlar harakati o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘qligi ham uqdirib kelingan. Masalan, arablarda *النجوم في السماء و أنت في الأرض* (An-nujumu fis-samaa va anta fil-ard) – “Yulduzlar osmonda, sen esa yerdasan” maqoli taqdirga bo‘ysunish va o‘z imkoniyatlarini cheklamaslik kerakligini anglatadi. Yoki *من تتبع النجوم ضل* (Man tatabba'an-nujuma dolla) – “Kim yulduzlarga ergashsa, adashadi” maqoli astrologiyaga haddan tashqari ishonish xavfli ekanligini uqtiradi. Shuningdek, yulduzlar harakatidan biror holat alomatlarini axtarish ham kuzatiladi. Masalan, *إذا طلع سهيل قل الأكيل* (Iza tala’a Suhayl qallal-akil) – “Agar Suhayl yulduzi chiqsa, yegulik kamayadi”. Bu maqol yulduzlarning holati qishloq xo‘jaligiga ta’sir qiladi, degan botil aqidadan kelib chiqqan.

Maqoldagi *naks* so‘zini *nahs* bilan bog‘lab talqin qilsak, uning na faqat tabiat, balki jamiyat hodisalariga ham tatbiqan yuzaga kelganini taxmin qilishimiz mumkin. Lekin shu o‘rinda mumtoz lug‘atlarda *naks* so‘zining o‘zi ham borligini e‘tiborga olishimiz kerak. *Naks* نكس Ali Akbar Dehxudo tomonidan mumtoz lug‘atlar asosida boshni egish, boshni xam qilish degan ma‘noni anglatadi. Bu holda uch kun davomida tabiiy hodisalar noqulayligi, uch kun davomida aksincha havo ochilib ketishi nazarda tutilgan.

NATIJALAR. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida uchraydigan temporal quyidagicha guruhlariga bo‘linishi mumkin:

1. Taqvim bilan bog‘liq temporal birliklar. Masalan, *yil*. Turkiy xalqlarning ko‘pchiligida yil hayvonlar sikli (muchal) bilan bog‘langan. Bu esa, yilning har bir davriga alohida ma‘no yuklanishiga olib kelgan. *Qo‘y yili, sichqon yili* kabi iboralar nafaqat vaqtni, balki ma‘lum xususiyatlarni ham anglatadi. Shuningdek, yilning fasllarga bo‘linishi, har bir faslga xos marosimlar va urf-odatlar ham og‘zaki ijodda keng aks etgan.

Oy. Oyning fazalari (yangi oy, to‘lin oy va boshqalar) turkiy xalqlarning turmush tarzida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Oy bilan bog‘liq irim-sirimlar, marosimlar, qo‘shiqlar va afsonalar mavjud. Masalan, yangi oy ko‘ringanda tilak qilish kabi odatlar.

Kun va tun. Kun va tunning almashinuvi, ularning har biriga xos faoliyatlar og‘zaki ijodda o‘z aksini topgan. Masalan, ertalabki qo‘shiqlar, kechki ertaklar, tungi afsonalar va boshqalar. Shuningdek, kunning qismlari (tong, peshin, shom va boshqalar) ham alohida ma‘noga ega.

2. Inson hayoti bilan bog‘liq temporal birliklar. Insonning yoshi turkiy xalqlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Yosh bilan bog‘liq marosimlar (beshik to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi va boshqalar), qo‘shiqlar, maqollar va hikmatlar mavjud.

Umr. Inson umrining qisqaligi, o‘tkinchiligi haqidagi falsafiy mulohazalar og‘zaki ijodda keng tarqalgan. Masalan, umr o‘tkinchi, umr g‘animat kabi iboralar.

XULOSA. Turkiy xalqlarning turmush tarzi tabiat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun ham fasllarning almashinuvi, ularning har biriga xos xususiyatlar og‘zaki ijodda keng aks etgan. Masalan, bahorning kelishi, yozning issig‘i, kuzning hosili, qishning sovug‘i haqidagi qo‘shiqlar, afsonalar va maqollar. Ob-havoning o‘zgarishi (yomg‘ir, qor, shamol va boshqalar) ham og‘zaki ijodda o‘z aksini topgan. Masalan, yomg‘ir chaqirish marosimlari, qor haqidagi qo‘shiqlar va afsonalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_synonims/акман
2. <https://rus-synonym-dict.slovaronline.com/27355-буран>
3. Қазақтың этнографиялық категориялар, ұғымдар мен атауларының дәстүрлі жүйесі. Энциклопедия. - Алматы: DPS, 2011.
4. <https://old.aqmeshit-apalygy.kz/tanim/2273-apan-amaly.html>
5. Носириддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 103.
6. Turner, C. (2003). The History of Astrology. London: OneWorld Publications. – P/ 123-132/